**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Guliston davlat universiteti

O‘quv ishlar prorektori _______ H.Ko‘shiyev

“____” “avgust” 2021 yil

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**“FAKULTETLARARO CHET TILLAR” KAFEDRASI**

# XORIJIY TIL FANI BO‘YICHA

# ISHCHI O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Ta’lim sohasi:** | **110000 Bakalavriat** |
| **Bilim sohasi:** | **100000 Gumanitar** |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | **5230100 Iqtisodiyot** ta’lim yo‘nalishi 3 – bosqich talabalari uchun |

Umumiy o‘quv soati: 120

Shu jumladan: Ma’ruza ___

Amaliy mashg‘ulotlari - 64 (32+32)

Mustaqil ta’lim soatlari - 56 (28+28)

Guliston-2021

Fanning ishchi o‘quv dasturi namunaviy o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
__________ **L.Qodirova**

**Taqrizchi:** “Ingliz tili va adabiyoti“ kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
__________ **X.Tojiyev**

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasining 2021 yil ____ avgust sanasidagi 1-sonli qarori bilan ko‘rib chiqilib, Filologiya fakulteti Kengashiga muhokama qilish uchun tavsiya qilindi.

**Kafedra mudiri** ____________ **E.Xamdamov**

Fanning ishchi o‘quv dasturi Filologiya fakulteti Kengashining ____________ 1-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

**Fakultet Kengashi raisi:** _____________ **M.Mamatkulov**

“Xorijiy til” fanining ishchi o‘quv dasturi GulDU o‘quv metodik kengashining ___________ 1-sonli majlisida muhokama etildi va ma’qullandi.

**O‘quv uslubiy bo‘lim boshlig‘i:** _________ **I.Xudoyberdiyev**

## I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartidagi “Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar”ga muvofiq oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lmagan fakultetlari bitiruvchilari chet tili bo‘yicha V2 darajasini egallashlari belgilab berilgan.

Xorijiy til fan dasturi mazmun-mohiyatiga ko‘ra umumiy ilmiy (akademik) til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, talabalarning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatlarida foydalanadigan til kompetentsiyalarini rivojlantirishga moslashtirilgan. Mustaqil ta’lim talabalarda tildan erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini egallash motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu dastur “Xorijiy til” fanini o‘qitish davrida talabalarning umumiy, akademik va kasbga yo‘naltirilgan til ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Xorijiy tilni o‘rganishning mustaqil muloqot (V2) darajasi talabalarda ko‘proq akademik va kasbga yo‘naltirilgan til ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

## II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Xorijiy tilni o‘rgatishdan asosiy maqsad – bo‘lg‘usi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tili yoki bir necha tillardan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim va ko‘nikmalarini darsdan tashqari, OTMni bitirganlaridan keyin ham rivojlantirish malakalarini hamda umumbashariy va sohaga oid ilmiy mavzularda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar ilgari suriladi:

– talabalarning nutqiy (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetentsiyalarini DTSi talablariga binoan rivojlantirish;

– ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog‘liq mavzular yuzasidan og‘zaki va yozma ravishda bayon etish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

– umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag‘rikenglik va millatlararo hamdo‘stlik hislarini singdirish;

– ilmiy va kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan termin va atamalarni o‘rgatish;

– talabalarning ilmiy va sohaviy yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarini tashkil etish.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyida keltirilgan talablar qo‘yiladi. Davlat ta’lim standartlariga ko‘ra chet tili bo‘yicha V2 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar asosida quyidagi kompetentsiyalarni egallash ko‘zda tutilgan.

***Lingvistik kompetentsiya***

**Nutqiy kompetentsiya:**

*Tinglab tushunish:*

keng ko‘lamli nutq yoki qator murakkab fikrlar bayonini;

ma’ruza, nutq, bayonot, tafsilotli yo‘riqnomalar, ilmiy va ixtisosliktaqdimotlar, so‘rov va fikrlarning mohiyatini;

e’lon va xabarlarni;

tanish va notanish kontekstdagi murakkab autentik nutqni;

o‘rganilayotgan til egasi bo‘lgan so‘zlashuvchilarning suhbat yoki munozarasining aksariyat qismini;

radio, internet va televidenie dasturlari, intervyularning aksariyat qismini tushuna oladi.

*Gapirish:*

Dialog:

o‘rganilayotgan tilda so‘zlashuvchilar bilan muloqotga kirishish;

oldindan tayyorgarlik ko‘rilmagan jonli muhokama va munozara yuritish;

o‘z sohalariga oid intervyuda ishtirok eta olish;
bitimga kelishuv yoki muammo echimini topishda rasmiylik va xushmuomalalikdan foydalanish;
rasmiy muhokama doirasida o‘z fikr va mulohazalarini aniq ifodalash;
o‘z hamkorlari bilan muzokara yurishtish;
ma’lum masala yuzasidan madaniy tartibga amal qilib ma’lumot yoki iltifot so‘rash;
muhokamalarda o‘z fikrlarini asoslash, o‘zgartirib talqin eta olish va tuzatish;
rasmiy doiralarda (masalan, seminar va hokazolar) xos ravishda savol-javob qilish.
Monolog:
ma’lum mavzu bo‘yicha yaxshi taqdimot qilish;
o‘z sohasi bo‘yicha ma’lumotlarni aniq va batafsil bayon etish;
ma’lum mavzu bo‘yicha og‘zaki ma’ruza qilish;
maqola, ma’ruza yoki muhokama yuzasidan aniq umumlashgan xulosa qilish;
tanish mavzuga oid qarash yoki fikrni rivojlantirish, dalillar, misollar keltirish orqali asoslash.
*O‘qish:*
tanish va notanish mavzulardagi matnlarning asosiyG‘ayrim jihatlarini;
o‘z sohalari va qiziqishlariga mos yozishmalarni;
jadval, grafiklarning qisqa izohini;
murakkab nomalarni;
maxsus va murakkab yozma yo‘riqnoma va yo‘nalishlarni;
tezislar, ma’ruza matnlari, konferentsiya dasturlari, mundarija va shu kabi matnlarni;
kasbiy sohalariga oid maqola va ma’ruzalardan tegishli ma’lumotni ajrata oladi.
*Rivojlantiriladigan malakalar:* Chet tilidagi materiallarning umumiy mazmunini tushunish, ayrim ma’lumotlarni olish, tafsilotlarni tushunish va yo‘nalishni aniqlash uchun o‘qish (belgilar, ko‘rsatkichlar va b).
*Yozuv:*
Maxsus rasmiy va norasmiy nomaG‘xatlar;
shaklan va mazmunan to‘g‘ri tashkillashtirilgan insho va ma’ruzalar;
etarli darajada grammatik, mazmun jihatdan to‘g‘ri tuzilgan va mos uslubdagi ilmiy maqolalar;
takliflar, xulosalar, annotatsiyalar va tezislar;
zarur holda o‘z sohalari bo‘yicha bitiruv malakaviy ishlar yoza olish.
**Til kompetentsiyasi:**
*Leksik:*
V2 darajasidagi leksikani egallash;
so‘z yasalishi (qo‘shma so‘zlar va affiksatsiya), o‘zlashma (baynalmilal) vao‘zakdosh so‘zlar;
antonimlar, sinonimlar va boshqa umumleksik munosabatlarni qo‘llay olish.
*Grammatik:*
o‘tilgan grammatik material (fe’l zamonlari, modal fe’llar, sifat va ravishlarning qiyosiy darajalari, determinativ so‘zlar, predloglar va hokazo)ni kundalik, ilmiy va sohaviy kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llay olish.
***Sotsiolingvistik kompetentsiya***
O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatlari misolida (ijtimoiy va ta’lim doiralarida) madaniyatlararo muloqotnichuqurroq tushunib etish va uning muloqot bilan bog‘liq xususiyatlari, jumladan, salomlashish, murojaat shakllari, xushmuomalalik va hokazo;
turli madaniyatlardagi kommunikatsiyaning noverbal elementlari: xatti-harakatlar, imo-ishoralar ustida ishlashni davom ettirish;
elektron muloqotlarning chet tilida yozish xususiyatlarini bilish va amaliyotda qo‘llay olish.
***Pragmatik kompetentsiya***
taqdimot qilish mahoratini yanada takomillashtirish;
fikrlarni og‘zaki va yozma nutqda mantiqan ifodalash;
turli ijtimoiy, ta’lim va mutaxassislik doiralarida mos ravishda tilni tegishli rasmiy shaklda qo‘llashni anglash;

muloqot jarayonida nutqni bo‘lish, aniqlik kiritish, boshqacha talqin etish, jumlalarni tuzatish, to‘ldirish va boshqa strategiyalarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish.

## III. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)

***Nutqiy mavzular***

**Ijtimoiy mavzular** (atrof-muhit, maishiy masalalar, shaxs va kasb psixologiyasi, global muammolar)

**Ijtimoiy-madaniy mavzular** (ilmiy va sohaga oid vaziyatlarda madaniy tafovutlar, dunyo va tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning madaniy, ijtimoiy xususiyatlari)

**Ta’lim mavzulari** (ta’lim tizimi, davomli ta’lim, ma’ruzalar, maqola, tezis va ilmiy ishlar yozish, o‘qish va o‘rganish strategiyalari va h.k.)

**Internet va axborot texnologiyalariga oid mavzular**. (jahon va yurtimiz miqyosidagi fan va texnika yangiliklari, yutuqlari, internet tarmoqlaridan foydalanish)

**Mutaxassislik sohasiga oid mavzular** (soha yo‘nalishlari, dolzarb mavzulari, mas’uliyat, hujjatlar yuritish, kasbiy etika, muzokaralar olib borish, mutaxassislik sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlar, innovatsion g‘oyalar va yangiliklar)

***Grammatik mavzular***

*Ingliz tili:*

- sifat va ravishlar;
- kelasi progressiv fe’l;
- kelasi tugallangan fe’l;
- kelasi tugallangan davom fe’li;
- aralash shart ergash gaplari;
- modal fe’llar – can’t have, needn’t have;
- hikoya fe’llari;
- majhul nisbatlar;
- o‘tgan tugallangan;
- o‘tgan tugallangan davom fe’llari;
- qo‘shma gaplar;
- o‘zlashtirma gap;
- gerundiy,sifatdosh, ravishdoshli qurilmalar;
- wish;
- would (odatlarni ifodalash, o‘tgan zamon).

## IV. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tasiyalar

Dastur talabalar uchun belgilab berilgan V2 (DTS) va undan yuqori darajalarni egallashga qaratilgan. Ushbu darajaga erishish talabalarda ilmiy va sohaviy faoliyatda yuzaga keladigan til bilan bog‘liq vaziyatlarda erkin muloqotga kirishishlarini va vaziyatni samarali hal qilishlarini ta’minlaydi.

Fan dasturi til kafedralari tomonidan ishchi dasturlar, o‘quv-uslubiy majmualar, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratilishiga asos bo‘ladi. Ishchi dasturlar asosida pedagog xodimlar o‘zlarining kalendar rejalarini ishlab chiqadilar.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda dasturlarda belgilangan mavzular asosida talabalarning ilmiy va sohaviy ehtiyojlaridan kelib chiqibkengaytirilgan vazifalar belgilab olinadi va ular yuzasidan talabalarga belgilangan vazifani o‘zlashtirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar rejasi tuziladi.

Nutqiy kompetentsiyaning tinglab tushunish, gapirish, o‘qib tushunish, hamda yozish ko‘nikma va malakalari darslarda integratsiyalashgan ravishdaolib boriladi. Mavzuning mohiyati

va mutaxassislik xususiyatlaridan kelib chiqib, u yoki bu koʻnikma va malaka darslarda asosiy deb olinadi.

Talabalarni baholash OTMda belgilangan tartib asosida, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar vositasida amalga oshiriladi.

**Xorijiy til (Ingliz tili) kursining mazmuni**

**Fandan oʻtiladigan mavzular va ular boʻyicha mashgʻulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti**

| № | Mavzu<br>**Fall term** | Soatlar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Jami | Ma'ruza | Amal | Labor | Mustaqil ta'lim |
| 1 | Lesson 1. Academic fields p.6 ( Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 8 | - | 4 | - | - |
| | *Adverbs (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | | - | - | - | 4 |
| 2 | Lesson 2. Scientific breakthrough p.10 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 8 | - | 4 | - | - |
| | *Reporting verbs (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | | - | - | - | 4 |
| 3 | Lesson 3. Oriental contribution p.14 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 10 | - | 4 | - | - |
| | * Wish sentences (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | | - | - | - | 6 |
| 4 | Lesson 4. Meeting Society needs p.20 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 4 | | 4 | - | - |
| 5 | Lesson 5 First impressions p.12 | 10 | - | 4 | - | - |
| | *Relative clauses (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | | - | - | - | 6 |
| 6 | Lesson 6. Dream Homes p.26 (Straightforward Intermediate) | 8 | - | 4 | - | - |
| | *Phrasal verbs (Straightforward Intermediate) | | - | - | - | 4 |
| 7 | Lesson 7. Hard sell p. 46 (Straightforward Intermediate) | 4 | | 4 | | |
| | *Modals of obligation, permission and prohibition (Straightforward Intermediate) | 4 | | | | 4 |
| 8 | Lesson 8. The Office p.50 (Straightforward Intermediate) | 4 | | 4 | | |
| | **ON** | | | | | |
| | **1-semestr jami:** | **60** | **-** | **32** | **-** | **28** |
| | **Spring term** | | | | | |
| 1 | Lesson 1. Academic degrees p.34 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 8 | - | 4 | - | - |
| | *Past simple/ past continuous (Straightforward Intermediate) | | - | - | - | 4 |
| 2 | Lesson 2. Public speechp.38 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 8 | - | 4 | - | - |
| | *Both/neither (Straightforward Intermediate) | | - | - | - | 4 |
| 3 | Lesson 3. Freelannce p.42 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 4 | - | 4 | - | - |
| 4 | Lesson 4. Up-to-date devices p.48 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 10 | - | 4 | - | - |
| | *Comparatives (Straightforward Intermediate) | | - | - | - | 6 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | Lesson 5. Immortal tracks p.52 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 10 | - | 4 | - | - |
| | * Past Perfect Simple (Straightforward Intermediate) | | - | - | - | 6 |
| 6 | Lesson 6. Personal ambition p.56 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova) | 8 | - | 4 | - | - |
| | *Collocations with sounds (Straightforward Intermediate) | | - | - | - | 4 |
| 7 | Lesson 5. Summer holidays p. 51 50 (Straightforward Intermediate) | 8 | - | 4 | - | - |
| | * Indirect questions (Straightforward Intermediate) | | - | - | - | 4 |
| 8 | Lesson 6. Travel plans 54 (Straightforward Intermediate) | 4 | - | 4 | - | - |
| | **ON** | | | | | |
| | **YaN** | | | | | |
| | **2-semestr jami:** | **60** | **-** | **32** | **-** | **28** |
| | **Umumiy jami:** | **120** | **-** | **64** | **-** | **56** |

Izoh: (*) – belgisi qo‘yilgan qatordagi mavzu TMI mavzusi deb hisoblansin.

## Xorijiy til (Ingliz tili) fanidan 3-bosqich talabalari uchun Mavzular va ko‘riladigan asosiy masalalar

### 3-kurs Xorijiy til (Ingliz tili) kursining mazmuni (kuzgi semestr)

**Academic fields (4h.)**

Reading: Academic fields. Grammar: Adverbs. Speaking: Kinds of Academic fields. Writing: Doing exercises. Key words: biology, chemistry, geography, natural sciences, (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)

**Scientific breakthroughs (4h.)**

Speaking: Scientific breakthrough. Grammar: Adverbs. Writing: Doing exercises. Speaking: working with the dialogues. Key words: DNA, NASA, Increase, major, source, environmental, pollution, pollutants, harmful, protection, government support. (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)

**Oriental contribution (4h.)**

Listening: Oriental Inventions and discoveries. Speaking: Novelties. Key words: scholarship, academician, science, current affairs, education, range of features programmes. p.68 (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)

**Meeting society needs (4h.)**

Listening: Meeting society nees. Speaking: Novelties. Key words: scholarship, academician, science, current affairs, education, range of features programmes. (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)

**First impressions (4h.)**

Reading: Describing people. Writing: Annie Cannon. Speaking: Rachel Carson. Key words: average, muscular, slim p.12 (Straightforward Intermediate)

**Dream homes (4h.)**

Speaking: Different types of Homes. Reading: Paradise ridge. Grammar: Modals. Listening: Home is sweet home. Key words: community, residents, decisions. (Straightforward Intermediate)

**Hard sell (4h.)**
Speaking: Favorite brands. Reading: Catch them young. Grammar: Adjectives. Listening: Discussions. Key words: appeal, images, associate, advert, fashionable. (Straightforward Intermediate)
**The Office (4h.)**
Speaking: Favorite brands. Reading: Catch them young. Grammar: Adjectives. Listening: Discussions. Key words: appeal, images, associate, advert, fashionable. (Straightforward Intermediate)

## Xorijiy til (Ingliz tili) kursining mazmuni (bahorgi semestr)

**Academic degrees (4h.)**
Reading: Academic degrees. Grammar: Gerund Speaking: Answering the questions. Writing: An essay on the given topic. Key words: industry, establishment, powerful, introduce, productivity (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)
**Public Speech. (4h)**
Reading: Public speech. Grammar: Conditionals. Writing: grammar exercises. Keywords: ease, monotone, publicly, stellar speech, clutch. (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)
**Freelance (4h.)**
Listening: Freelance. Reading: Marjona Boboyeva. Writing: letter of certification. Key words: relate, regularly, amount of money, fixed, expenses; (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)
**Up-to date devices (4h.)**
Reading: Up-to date devices. Writing: Doing exercises. Grammar: -ing form. Key words: cutting edge, progress, technologies, devices. (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)
**Immortal tracks (4h.)**
Speaking: Immortal tracks. Grammar: Transitions. Reading: New Minor planet Samarkand. Key words: celestial, preliminary, provisional, monitoring, precise (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)
**Personal ambition (4h.)**
Reading and Speaking: Personal ambition in Science. Key words: youth perspective, ambition, disclose, contentious, develop, undertake. (Scale-up G.Boqieva, F.Rashidova)
**Summer holidays (4h.)**
Reading: Summer holidays. Grammar: Adverbs. Speaking: Key words: arrive at the resort, choose a destination, do the packing, find a deposit. (Straightforward Intermediate)
**Travel plans (4h.)**
Reading: Travel plans. Grammar: Collocations. Speaking: Talking about predictions. Key words: perfect, amazing, dreadful, excellent. (Straightforward Intermediate)

**Talabalar bilimini nazorat qilish**

Talabalarning chet tili bo‘yicha egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalari joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar orqali nazorat qilinadi.

Joriy nazorat: har bir darsda alohida talaba bilan ishlab ularning darsga tayyorgarlik darajasi savol-javob orqali tekshirilib, kundalik ballar qo‘yib boriladi.

Oraliq nazorat: kafedraning fan bo‘yicha ishchi dasturiga asoslangan holda, xar bir semestrga qo‘yilgan talablar asosida bir qancha darslar o‘tilganidan keyin o‘tkaziladi. Natijalarni

dasturda berilgan talablar bilan qiyoslash orqali talabalarning malaka va ko‘nikmalari qanchalik o‘sganligi aniqlab boriladi.

Yakuniy nazorat: fan bo‘yicha bakalavriat kursining yakunida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat o‘tkazilishi natijasida dastur talablari bo‘yicha kasbiy chet tili kompetentsiyasi aniqlab olinadi.

**Yakuniy nazorat mazmuni**

1. **Tinglab tushunish bo‘yicha**:

Kasbga yunaltirilgan matnni tinglash va uni tushunganligini aniqlash maqsadida testlar echish.

2. **Gapirish bo‘yicha**:

Kasbga yo‘naltirilgan mavzu bo‘yicha batafsil, sinchiklab, argumentlar bilan boyitgan holda o‘z fikrini bayon etish.

3. **O‘qish bo‘yicha**:

Kasbiy yo‘nalishdagi matnni o‘qib, tushunganligi asosida test topshiriqlarini echish. O‘qigan matn mazmunini aniq va to‘liq tushunganligini tekshirishni yozma tarjima bilan amalga oshirish mumkin. Bunda lug‘atdan foydalanishga ruxsat beriladi.

4. **Yozuv buyicha**:

Sohaning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan esse yozish.

**Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

Fan bo‘yicha laboratoriya ishlari namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan

**Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar**

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada rejalashtirilmagan

**Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Chet tili fanidan mustaqil ishlarining maqsadi - talabalarning kasbiy kommunikativ faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyatini o‘stirish, va chet tili ustida mustaqil ishlay olish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iborat. Ushbu umumiy maqsadga erishish uchun quyidagi bir necha vazifalarni bajarish nazarda tutiladi:

- talabalarning til tayyorgarlik sifatini oshirib borish, til va mutaxassislik bo‘yicha adabiyotlar ustida ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- o‘z kasbiy bilim va malakalarini keyinchalik mustaqil to‘ldirib va yangilab turish extiyojlarini yaratish va saqlab qolish, chet tili bo‘yicha yaratilgan malaka va ko‘nikmalarni o‘stirib, rivojlantirib borish;
- talaba bajarishi kerak bo‘lgan ishlarni to‘g‘ri tashkil qilish, kelib chiqadigan qiyinchiliklarni oldindan bila olish, his etish va ularni bartaraf qilish yo‘llarini topa olish.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mazmuni**

Talabalarning mustaqil ishlari nutq faoliyatining quyidagi turlari bo‘yicha tashkil qilinadi.

O‘qish: (tanishib chiqish, sinchiklab, qarab chiqish), yozuv, tinglab tushunish va gapirish;

Tinglab tushunish: hajmi turlicha bo‘lgan audio- va video matnlarni tinglab tushunish, savollarga javob berish, gapirib berish, annotatsiya yoza olish;

Gapirish: talabalarning dialogik va monologik nutqlari bo‘yicha mustaqil ishlari auditoriyada o‘rgatilgan matnlar, o‘quv materiallari asosida tashkil qilinadi. Gapirish bo‘yicha mustaqil ish sifatida mavzu asosida ma’lumot tayyorlash, matn mazmunini gapirib berish, o‘rganilgan leksik materiallar asosida hikoyalar tuzish, berilgan muammoli masala va vaziyatlarni muhokama qilish kabi topshiriqlar berish mumkin. Gapirish ko‘nikmalarini

rivojlantirib borish uchun multimedia dasturlarini va on-layn texnologiyalarini qo‘llashga asosiy e’tibor qaratiladi;

O‘qish: talaba o‘rganayotgan sohasiga oid adabiyotlar bilan tanishib chiqishi va o‘zi uchun qiziqarli va kerakli bo‘lgan axborotni tushunishi, publitsistik, ilmiy-ommabop ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni o‘qishi va kerakli axborotni olishi lozim. Mashg‘ulotlarda yuqorida aytilgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘stirish juda murakkab bo‘lganligi uchun ularni mustaqil ish jarayonida sinchiklab, ko‘z yugurtirib, qarab chiqib o‘qish turlari orqali tashkil qilinadi. Ushbu o‘qish turlarini nazorat qilish-matnni butunlay tarjima qilish yoki uning tanlab olingan qismlarini tarjima qilish bilan amalga oshiriladi.

Tanishib chiqib o‘qish mustaqil ish turi sifatida uyda o‘qish shaklida olib boriladi. O‘qishning bu turi uchun autentik yoki adaptatsiya qilingan adabiy, ilmiy-ommabop adabiyot tanlab olinadi. Tekshirish shakllari: o‘qiganini mazmunini tushunganligi bo‘yicha savol-javob ishlari, ajratib olingan masalalar bo‘yicha axborot olish, baxs-munozaralar o‘tkazish, axborotga reja tuzish va h.k.

Qarab chiqib, qidirib topish uchun o‘qish. O‘qishning bu turida ommaviy-siyosiy, publitsistik matnlar, gazeta va jurnal materiallari beriladi va har bir darsda qisqacha axborot olinadi. Talaba bitta gazeta maqolalari asosida axborot beradi yoki mavzu bo‘yicha bir qancha gazeta va jurnallardan axborot tayyorlaydi.

Yozuv. Yozuv bo‘yicha mustaqil ish o‘z ichiga o‘rganilayotgan tilda fikrni bayon qila olish ishlarini oladi. Bunda mustaqil ish mazmuniga quyidagilar kiradi:

- annotatsiya, referat, rezyumelar tuza olish;
- og‘zaki ravishda nutq hosil qilish uchun reja yoki tezis tuzish;
- turli xatlar, tabriknoma, takliflar, ish yuzasidan xatlar tuza olish;
- o‘qishga va ishga qabul yuzasidan arizalar yoza olish;
- sohaga oid turli hujjatlarni to‘ldirish;
- bayon, insho, esselar yoza olish; kasbi bo‘yicha ish yuritish ishlarini (yozuvlarini) olib borish.

O‘qib tarjima qilingan materiallar kurs ishlari va referatlarda qo‘llaniladi.

“Xorijiy til” fanidan 3- bosqich talablari uchun

**Talabalar mustaqil ishi mazmuni**

| т\р | Mavzular va topshiriqlar mazmuni | Ajratilgan vaqt (soat) | Informatsion-uslubiy ta’minot | Bajarilish muddati |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Adverbs p.7 | 4 | Scale-up 3 (G.Boqieva, F.Rashidova) | 1 – 2 xafta |
| 2 | Reporting verbs p.11 | 4 | Scale-up 3 (G.Boqieva, F.Rashidova) | 2 – 3 xafta |
| 3 | Wish sentences p.14 | 6 | Scale-up 3 (G.Boqieva, F.Rashidova) | 3 – 4 xafta |
| 4 | Relative clauses p.21 | 6 | Scale-up 3 (G.Boqieva, F.Rashidova) | 4 – 5 xafta |
| 5 | Phrasal verbs p.17 | 4 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | 5 – 6 xafta |
| 6 | Modals of obligation p.27 | 4 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | 7 – 8 xafta |
| 7 | Past Simple.30 | 4 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | 8-9 xafta |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8 | Both/neither p. 39 | 4 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | 8 – 9 xafta |
| 9 | Comparatives p.47 | 6 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | 9 – 10 xafta |
| 10 | Past perfect p.40 | 6 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | 12 – 14 xafta |
| 11 | Collocations p.57 | 4 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | 14 – 16 xafta |
| 12 | Indirect questions p.59 | 4 | Straightforward Intermediate (F.Kerr) | |
| | | | | |
| | **ЖАМИ:** | **56** | | |

### Nutq faoliyati turlari ustida ishlash uchun vaqtni to‘g‘ri taqsimlash

Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun har bir darsda nutq faoliyati turlari quyidagi nisbatda bo‘lishi maqsadga muvofiq:

tinglab tushunish - 25% ;
gapirish - 25%;
o‘qish – 30%;
yozuv – 20% .

### Talabalar bilimini nazorat qilish

Talabalarning chet tili bo‘yicha egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalarijoriy, oraliq va yakuniy nazoratlar orqali nazorat qilinadi.

Joriy nazorat: har bir darsda alohida talaba bilan ishlab ularning darsga tayyorgarlik darajasi savol-javob orqali tekshirilib, kundalik ballar qo‘yib boriladi.

Oraliq nazorat: kafedraning fan bo‘yicha ishchi dasturiga asoslangan holda, xar bir semestrga qo‘yilgan talablar asosida bir qancha darslar o‘tilganidan keyin o‘tkaziladi. Natijalarni dasturda berilgan talablar bilan qiyoslash orqali talabalarning malaka va ko‘nikmalari qanchalik o‘sganligi aniqlab boriladi.

Yakuniy nazorat: fan bo‘yicha bakalavriat kursining yakunida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat o‘tkazilishi natijasida dastur talablari bo‘yicha kasbiy chet tili kompetentsiyasi aniqlab olinadi.

**Yakuniy nazorat mazmuni**

1. **Tinglab tushunish bo‘yicha**:

Kasbga yunaltirilgan matnni tinglash va uni tushunganligini aniqlash maqsadida testlar echish.

2. **Gapirish bo‘yicha**:

Kasbga yo‘naltirilgan mavzu bo‘yicha batafsil, sinchiklab, argumentlar bilan boyitgan holda o‘z fikrini bayon etish.

3. **O‘qish bo‘yicha**:

Kasbiy yo‘nalishdagi matnni o‘qib, tushunganligi asosida test topshiriqlarini echish. O‘qigan matn mazmunini aniq va to‘liq tushunganligini tekshirishni yozma tarjima bilan amalga oshirish mumkin. Bunda lug‘atdan foydalanishga ruxsat beriladi.

4. **Yozuv buyicha**:

Sohaning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan esse yozish.

### Dasturning informatsion – metodik ta’minoti

Chet tili fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Amaliy mashg‘ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so‘rov, kichik guruhlarda ishlash, insert, prezentatsiya, keys stadi kabi usullarning mavzuga mos tanlanishi va qo‘llanilishi dars samarasini oshirishga kattahissa qo‘shadi.

## Baholash mezoni

### 1. Talabaning amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish darajasi quyidagi mezon asosida aniqlanadi

**Maksimal baho - 5** **Saralash bahosi- 3**

| | |
|---|---|
| **Baholash mezonlari** | ***5 <u>baho ( 90-100 %)</u>***<br>1. fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olishi;<br>2. xulosa va qaror qabul qilish;<br>3. ijodiy fikrlay olish;<br>4. mustaqil mushohada yurita olish;<br>5. olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;<br>6. mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish;<br>7. tasavvurga ega bo‘lish.tahlil natijalari asosida vaziyatga to‘g‘ri va xolisona baho berishi;<br>8. nutqi benuxson, yozuvlarida grammatik xatolar bo‘lmasligi;<br>***4 <u>baho (70-89%)</u>***<br>– o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish;<br>– mustaqil mushohada yurita olish;<br>– olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;<br>– mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish;<br>– tasavvurga ega bo‘lish<br>***3 <u>baho(60-69%)</u>***<br>1. Mohiyatini tushunish;<br>2. bilish, aytib berish;<br>3. tasavvurga ega bo‘lish.<br>***2 <u>baho (0-59%)</u>***<br>1. Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;<br>2. bilmaslik. |

Talabaning oraliq nazorat bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari quyidagi jadval asosida kredit ballariga va harfli tizimga o‘giriladi.

| Harfli tizimdagi baho | Ballarning raqamli ekvivalenti | Foiz ko‘rsatkichi | An’anaviy usuldagi baho |
|---|---|---|---|
| A | 4,0 | 95-100 | A’lo |
| A– | 3,67 | 90-94 | |
| B+ | 3,33 | 85-89 | Yaxshi |
| B | 3,0 | 80-84 | |
| B– | 2,67 | 75-79 | |
| C+ | 2,33 | 70-74 | |
| C | 2,0 | 65-69 | **Qoniqarli** |
| **C–** | **1,67** | **60-64** | |
| D+ | 1.33 | 55-59 | Qoniqarsiz |
| D | 1,0 | 50-54 | |
| F | 0 | 0-49 | |

**2.** Oraliq baholash. Oraliq baholash semestr mobaynida bir marta oʻtkaziladi. Xar bir oraliq baholash 4ta koʻnikmaga asoslangan (Listening, reading, writing, speaking,) topshiriqlardan iborat, va xar bir topshiriq uchun talabaga maksimal 5 baho beriladi, hamma savolarga javob bersa, talaba 5 baho oladi. Xar bir topshiriqga berilgan javobdagi mazkur fan boʻyicha bitta xato -1ga teng.
**3.** Yakuniy baholash. Yakuniy baholash 4ta koʻnikmaga asoslangan (Listening, reading, writing, speaking,) topshiriqlardan iborat boʻlishi mumkin. Yakuniy baholashga maksimal 5 baho koʻyilishi mumkin.
Yakuniy baholash 4 koʻnikmani oʻz ichiga oladi: tinglab tushunish, yozish, oʻqish va gapirish koʻnikmalari.
Yakuniy baholash quyidagi koʻrinishda boʻladi:
**- Tinglab tushunish** uchun berilgan topshiriqqa talaba notanish videorolik, qisqa kadrni tomosha qilgach, oʻz fikrini ingliz tilida lugʻatsiz yozma ravishda toʻliq bayon etsa, unda imloviy, uslubiy xatolar mavjud boʻlib, vazifa toʻliq yoritilgan boʻlsa – 5baho;
**- Yozma ish** uchun berilgan topshiriqni bajarishda talaba mavzu xaqida batafsil maʼlumot bersa, imloviy xatolarga yoʻl qoʻysa, mavzu toʻliq yoritilgan boʻlsa – 5baho;
**-Oʻqish** uchun berilgan topshiriqni bajarishda talaba topikning asosiy mazmunini tushuntirib berishi, oʻqish davomida talaffuzda xatolar uchramasa – 5baho;
**- Gapirish** uchun berilgan topshiriqni bajarishda talaba topikning asosiy mazmunini soʻzlab berishi, gaplarni grammatik jihatdan toʻgʻri tuza olsa, soʻz boyligidan unumli foydalana olsa - 5baho

## VI. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari[1]

### Asosiy adabiyotlar


1. Boqieva G.X., Rashidova F.M. va boshqalar. Scale up. Student’s book. Course 1,2,3. - T.: G‘afur G‘ulom, 2015.
2. Boqieva G.X., Rashidova F.M. va boshqalar. Scale up. Workbook. Course 1,2,3. - T.: G‘afur G‘ulom, 2015.
3. Shirinova R.X. Frantsuz tili G‘G‘ Darslik. - T.: Sano standart, 2015 (ikkinchi nashr, 2017)
4. Abdullaev M. Manual Espanol: Libro de Ejercicios, Libro de Estudiante,Libro de ProfesorZ/Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”, 2017
5. Ute Koithan, Helen Schmitz, Tanja Sieber. Aspekte B1+.- Stuttgart: Klett Verlag, 2017.
6. Perlmann-Balme Michaela, Susanne Schwalb. Sicher B1+. - Munchen: Huber Verlag, 2012.
7. Sandra Evans, Angela Pude, Anna Breitsameter, Julia Braun-Podeschva Franz Specht u.a. Menschen. Deutsch als Fremdsprache A1-B1. Kurs-und Arbeitsbuch mit Audio DVD- Rom. 2012-2016. Hueber Verlag GmbH tr Co. KG, 85737 Ismaning, Deutschland


**Qo‘shimcha adabiyotlar**


1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. G‘G‘ Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
5. “British Council - EQUALS Core inventory for general English”. -Copyright British Council/EAQUALS, ISBN: 978-086355-653-1, 2010.
6. Boqieva G.X, Rashidova F.M. va boshqalar. Scale up. Teacher’s book. Course 1,2,3. - T.: G‘afur G‘ulom, 2015
7. Alovitdinova X., Radjabova D. va b. English for ESL and ESP learners. - T.: TMU, 2012.
8. Ibragimova R.S. Frantsuz tili G‘G‘ O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2010.
9. Ishmuxamedov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste’dod, 2008.
10. Kerr P., Jones C. *Straightforward.* Intermediate. Student's Book. 2nd edition. — Macmillan, 2007.
11. Scrivener J., Bingham C., Tennant A., Wasserman S. Straightforward Intermediate. Teacher's book - Macmillan, 2007.
12. Tilbury A., Hendra L. A. *English Unlimited.* Upper Intermediate B2. Student's Book. - Cambridge University Press, 2011.
13. Tilbury A., Hendra L. A. *English Unlimited.* Upper Intermediate B2. Teacher's Book. - Cambridge University Press, 2011.
14. Michele B., Beajouin P. *Expression Orale 2 - B1.* - CLE International, 2005.


---

[1] Adabiyotlar ro‘yhatiga OTM axborot-resurs markazlari imkoniyatlari, sohaga oid zamonaviy manbalar va har bir til xususiyatlari inobatga olingan holda qo‘shimchalar kiritilishi mumkin. Kiritilgan qo‘shimchalar ishchi dasturlarda keltiriladi

15. Perlmann-Balme M., Schwalb D., Weers S. *EM neu Hauptkurs* (Kursbuch) - Hueber Verlag, 2008.
16. Ilse Sander, Birgit Braun, Margir Doubek u.a. DaF kompakt A1-B1 Kursbuch mit 3 Audio -CDs .Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011.
17. Birgit Braun, Margir Doubek, Andrea Frater -Vogel u.a. DaF kompakt A1-B1 Ubungsbuch mit 3 Audio -CDs .Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011.
18. DaF kompakt A1-B1 Grammatik. Deutsch als Fremdsprache fur Erwachsene. Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2012
19. Usmanova G., Mansurova G., Ishankulova N. Deutsch. Uchebnik nemetskogo yazo‘ka. - T.: Fan, 2013.
20. Jordan, R. English for Academic Purposes. - Cambridge University Press, 1997
21. “Kirkham L., Iriskulov A., Rashidova F. A Handbook for teachers of FL with reference to the CEFR. - Tashkent, 2013.

**Internet saytlari**

1. http://www.teachingenglish.org.uk/think/articles/listening
2. http://www.usc.edu/dept/education/CMMR/CMMR BTSA home.html#Resources BeginningTeachers
3. http://www.teachermentors.com/MCenter%20Site/BegTchrNeeds.html
4. http://www.inspiringteachers.com/
5. http://teachnet. org/ntpi/research/prep/Cooper/http://www. alt- teachercert.org/Mentoring.htm1
6. www. examenglish. com
7. http://www. education. gouv. fr
8. http://www. educnet. education. fr
9. http://www. educationprioritaire. education. fr
10. http://www. elodil.com/historique.
11. http://www. edufle.net
12. http://www.francparler.info/accueil
13. http://www.francparler.info/accueil
14. http://www.leplaisirdapprendre. com
15. http://www.enseigner.tv(Enseigner avec TV5)
16. https://www.dw.com/de/deutsch-lernen/s-2055
17. https://www.goethe.de/de/spr/ueb.html
18. https://deutschlernerblo g. de/tipps -zum-deutschlernen/
19. http://www.learn-german-online.net/learning-german-resouces/deutsch-via-internet.htm
20. https://www. alumniportal-deutschland. org/deutsche-sprache/online-deutsch-lernen/videos- und-interaktive-uebungen/